

**TARJIMADA TRANSPOZITSIYA: O'ZBEK VA INGLIZ
TILLARDA VA INTERPRETATSIYA (TALQIN) TURLARI**

Tulkinova Ma'mura

***Annotatsiya:** Ushbu maqola konversiv tarjima transpozitsiya turli yo'llar bilan talqin qilish masalasiga bag'ishlangan. Konversiv munosabatdagi til birliklarining har xil jihatlari tahlil qilinadi va ularning o'ziga xos xususiyatlari izohlanadi. Maqolada konversiv transformatsiyalarning boshqa modifikatsiyalar bilan o'zaro munosabati tadqiq qilinadi. Shuningdek, tarjimada aslyiat matnining diskursiv shaklini ifodalashda murakkab tarjima transformatsiyalarining tasiri ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** tarjima, konversiv tarjima, tarjima transpozitsiya konversiv o'zbek va ingliz tilida va interpretatsiya, matnning diskursiv shakli, tarjimaning variantli va variantsiz shakllari, konversiv transformatsiyalarning murakkab tabiati.*

O'zbek tiliga tarjima qilingan ko'pchilik asarlar bilvosita (ko'pincha rus tili orqali) tarjima qilingan. Bunda aslyiatdagi ma'no va mazmunyo'qolish ehtimoli mavjud. Bugungi kunda she'riyat tarjimasi va unda uchraydigan elementlar: qofiya, radif, raviy, turoqlar, hojib va boshqa unsurlarni tarjima tiliga o'tkazish juda ham qiyin masala hisoblanadi. Ularni tarjima jarayonida qanday berish kerakligi, aslyiatdagi qofiya, ma'no va mazmunni qanday saqlash kerakligi juda ham muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. Masalan, milliylikka xos so'zlar kelib qolganida qanday qilib uni she'riy tarjimada aks ettirish tarjimonni biroz chuqur o'yg'a toldiradi. Shuningdek, tanlangan mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, tarjima qilinayotgan tilning, xususan, u tilda yaratilayotgan turli badiiy asarlarning ijtimoiy hayotimizga kirib kelishi, axborot almashinuvida tutgan o'rni, fan va taxnika, adabiyot va san'at rivojidadagi salmoqli hissasi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan esa o'zbek tilining mavjud imkoniyatlarini ishga

solish, bu asosda to'g'ridan to'g'ri asl nusxadan tarjimani amalga oshirish va vositachi til xizmati harakatini o'zbek tili doirasida minimal darajaga tushirish, vazn, qofiya, ritm, turoq, raviy va hokazolarni ta'minlanishini yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Tarjimonlar she'riyat tarjimasida ham leksik, grammatik transformatsiyalarini qo'llashadi. Transformatsiya, L. S. Barxudarovning «Некоторые проблемы перевода с английской поэзии на русский язык» nomli kitobida ta'kidlashicha, rus tili normasi va she'riy tuzilishi imkon bergan joyda, she'r ma'nosiga zarar etkazmaydigan hollarda ishlatiladi. Ingliz va fransuz she'riyatida kompressiyaning ishlatilishi bo'yicha quyidagi metodlar mavjud:

1. Mexanik tarzda tushirib qoldirish. Bu hol asliyatdagi unurni tarjimada berishning iloji bo'lmaydi, vazn, o'lchov yo'l qo'ymaydi.

2. Ijodiy tushirib qoldirish. Bu holda kompressiya holati transformatsiya metodi orqali (qisish) amalga oshadi. Ijodiy qurbon berishda, tarjimon nafaqat so'zlarni tarjima qilmay, balki asliyatdagi jummalarni qisqartiradi.

1. Asliyatdagi murakkab so'z birikmasi oddiyroq so'z birikmasi bilan yoki fe'l bilan almashtiradi.

At first he tried to hammer an excuse

And hast comman of every part

To live, and die for thee

(Robert Herick)

O'zing hal qil: o'laymi

Yo qolaymi sen uchun?

2. Substantiv so'z birikmalarni ot yoki sifat bilan almashtirish.

Dead scandals form good

Subjects for dissection.

Ye mustering thunders from above

Your willing victom see!

Sen-chi, ko'kdagi chaqmoq

Sevgi qurboniga boq.

3. So'z birikmalarini har turdagi olmoshlar bilan almashtirish.

The bard I quote from does not sing amiss.

Shoirning she'rlari shundayin kuchli.

4. Leksik-semantik qisqartirish.

Besides, the prince is all for the land-service,

Forgetting Duncan, Nelson, love and Jervis.

Buyuk admiral qirol va butun mamlakatni unutdi

The sword, the banner, and the field

Glory and Greece, around me see!3

(Byron)

Atrofimda jang, maydon,

G'alaba va sen, Yunon!

“sword”, “banner”, va “glory” (qilich va bayroq) so'zlari “jang” va “g'alaba” deb berilgan.

G'.Salomov qayd etganidek, “Tarjimada badiiy asar ohangini berish barchaadabiy janrlarda ham muhim. Alohida maqol yoki mataldan tortib to sonet, g'azal, poema, hikoya, romangacha, agar hamohanglik ta'minlangan bo'lmasa, u tarjima soxta jaranglaydi. Ohang esa o'z navbatida, badiiy asarning boshqa komponentlari, lug'aviy birlik, sintaksis, inversiya, saj', radif, qofiya, vazn va boshqalar bilan bog'langan holda tarjimada yo tabiiylik yoki aksincha, soxtakorlik, sun'iy kontekst, yasama badiiy muhit paydo bo'lishiga olib keladi”. Tarjimada muvofiq uslub kalitni topish asarning yozilish uslubi bilan g'oyasi hamda muallif dunyoqarashi o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri belgilash, marom, ohang, sintaktik tarz va obrazlar silsilasiga xos xususiyatlarni to'g'ri talqin qila bilishga bog'liq. Biror asarni tarjima qilishda maqbul uslub kaliti topilmas ekan, tarjima asl nusxaga ekvivalentlik holatida bo'la olmaydi. Uslubiy moslashtirish prinsipi tarjimaning umumiy konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq. Chunonchi, tarjima qanday bo'lishi kerak degan masalada barcha tarjimonlar va nazariyachilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh tarjima asliyat asardek jaranglashi kerak deb hisoblasa, boshqalar tarjima tarjimaday bo'lishi kerak deb da'vo qiladilar. Har bir konkret tarjima, tarjimonning tarjimini qanday tushunishi

mahsulidir. Tarjimon asarni o‘z tiliga o‘g‘irish uchun shakliy kalit qidirishida dastavval shaklning mazmun funksiyasiga asoslanmog‘i darkor. She‘rning ovoz shakli bilan uning mazmuni chambarchas bog‘langan. Ayni bir vazn turli tillarda bir biridan farq qiladigan tamomila boshqa funksiyalarni bajarishi mumkin. Chunki har bir til o‘ziga xos ohang, tallafuziga ega. Bundan tashqari, turli tillarda so‘zlar uzun yoki qisqaligi jihatidan ham farq qiladi. Tahlillardan kelib chiqib, konversiv tarjima transformatsiyalarining tabiati murakkab va kompleks xarakterga ega ekanligini aytishimiz mumkin.

Tarjima jarayonida amalga oshiriladigan transformatsiyalarning murakkab tabiati leksiksemantik, grammatik, mazmuniy, mantiqiy, diskursiv-ekspressiv kabi xususiyatlarga asoslanadi. Asliyat matnining mazmunini tarjimada to‘laqonli tarzda talqin qilishning usullari qanchalik ko‘p bo‘lsa, tarjima transformatsiyalarining ahamiyati ham shunchalik ortib boradi. Asliyat matnida lisoniy xususiyatlarning ko‘pligi, tarjimada transformatsiyalardan foydalanish zaruriyatini oshiradi. Jumlada lisoniy birliklar qanchalik chuqur ma‘noga ega bo‘lsa, transformatsiyaga xos belgilarning soni ham ko‘payib boradi. Ko‘p sonli talqinlar mavjud bo‘lgan holatda birgina transformatsiyaning o‘zi turli usullarda talqin qilinishi mumkin. Talqinlarning ko‘pligi esa tarjimaning variantli shakliga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.G.N.Byron. “Remembrece”, “Xotiroto”.
2. G.G.N.Byron. “To my son”
3. L. S. Barxudarovning «Некоторые проблемы перевода с английской поэзии на русский язык» М.: Высшая Школа, 1984, вып. 21. -С. 38-48.
4. Munisa, M. (2019, February). WAYS OF IMPLEMENTING CULTURAL MATERIAL INTO FOREIGN LANGUAGE CLASSROOM. In International Scientific and Practical Conference " Innovative ideas of modern youth in science and education " (pp. 299-301).

5. Rakhmonova A., Abduhakimova Z. Pragmalinguistic aspects of emotiveness in English language //Pedagogs. – 2024. – Т. 51. – №. 1. – С. 167-170.
6. Raxmonova A. U. Positive and Negative classification of Emotions //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2021. – №. 8-1. – С. 12-17.
7. Robert Herrick “To Anthea who may command him anything”
8. Ruzibaeva, N. (2019). PECULIARITIES OF THE ANTITHESIS IN THE LITERARY TEXT. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(11).
9. Shokirovich, T. O., & Abdijalilovna, Z. D. (2020). Teaching EFL and ESP for Law. Activities and challenges during the covid-19 pandemic in Uzbekistan. Solid State Technology, 63(6), 8318-8325
10. Ulfatovna R. A. et al. Specific peculiarities of american English Idioms //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2021. – Т. 1. – №. 1.
11. Капулунко А.М. «Некоторые проблемы репродукции поэтический интонации при переводе с английского на русский (на материале сонетов Шекспира). Вопросы теории и практики перевода. Иркутск. сбр. Науч. трудов-вып. 2. 1999.
12. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. Т.: «Ўқитувчи». – 1983. – 230б.